

## O'ZBEK TILI IMLO QOIDALARI TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI IMLO QOIDALARI ASOSIY JIHALTLARI

*Eshqulov Sunnatilla Abdulla o'g'li*

*Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolda tilshunoslik muhim bo'limlaridan biri bo'lgan imlo qoidalar haqida so'z boradi. Chunki nutq madaniyatining birinchi bosqichidan biri bu nutqning imloviy jihatdan to'g'ri bo'lishi hisoblanadi. Maqolada o'zbek tili imlo qoidalar tarixi yoritilgan va bugungi kundagi imlo qoidalarimizning asosiy jihatlari haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** orfografiya, orfoepiya, nutq madaniyati, yozuv, til vositalari, imlo qoidalar.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются правила правописания, одна из важнейших частей языкознания. Потому что одним из первых этапов культуры речи является правописание. Статья посвящена истории узбекских правил правописания и комментирует основные аспекты наших правил правописания сегодня.

**Ключевые слова:** орфография, орфоэпия, культура речи, письмо, языковые средства, правила правописания.

**Annotation.** This article discusses spelling rules, one of the most important parts of linguistics. Because one of the first stages of speech culture is spelling. The article covers the history of Uzbek spelling rules and comments on the main aspects of our spelling rules today.

**Keywords:** spelling, orthoepy, speech culture, writing, language tools, spelling rules.

Xalqimiz foydalangan yozuvlar uzoq tarixga borib taqaladi. Masalan, milodiy VIII asrdan boshlab bizning hududimizga arab yozuvi kirib keladi. Bu Movarounnahr hududini arablar tomidan 704-715-yillar davimida Qutayba boshchiligida bosib olinishi bilan bog'liq. Arab yozuvi kirib kelishi bilan bir qatorda, yurtimizga arab madaniyati, arab tilidan yozilgan ko'plab qimmatbaho asarlar ham kirib keladi. Bu narsa yurtimizda ilm-fanning rivojiga ancha ijobiy

ta'sir ko'rsatadi. Arab yozuvi va unga tegishli imlo qoidalari yurtimizda uzoq davr mobaynida ishlatib kelinadi. Bu yozuvda ota-bobolarimiz tominidan juda ko'plab nodir asarlar yoziladi. Arab grafikasi diyorumizda VIII asrdan boshlab to 1929-yilgacha amalda foydalanib kelinadi. 1929-yildan lotin yozuviga o'tiladi. 1929-1940-yillarda lotin yozuvidan foydalaniladi. 1940-yilda esa kirill grafikasiga o'tiladi. 1940-1993-yillarda xalqimiz uzoq vaqt davomida kirill yozuvidan foydalanib keladi, bu bevosita yurtimizning ruslar tomonidan bosib olinishi bilan bog'liq.

1940-yilga kelib lotin alifbosi o'rniga kirill yozuviga o'tiladi. Shundan boshlab kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarini tuzishga kirishiladi. 1956-yil 4-aprelda kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalari tasdiqlanadi. Mazkur imlo qoidalari 5 ta bo'lim, 72 ta qoidadan iborat bo'lib, ular quyidagicha tuzilgan:

1. Ayrim harflarning imlosi (1-30-qoidalar).
2. O'zak-negiz va qo'shimchalarning imlosi (31-55-qoidalar).
3. Qo'hma so'z va so'z birikmalari imlosi (56-58-qoidalar).
4. Bo'g'in ko'chirish (59-62-qoidalar).
5. Bosh harflarning yozilishi (63-72-qoidalar)

Shundan so'ng 1976-yilda kirill yozuviga asoslangan „O'zbek tilining imlo lug'ati“ yaratildi. Bu lug'atga 65 000 dan ortiq so'z kiritilgan edi. Lug'at O'zbekiston SSSR Fanlar akademiyasi akademigi Shonazar Shoabdurahmonov tahriri ostida va Sobirjon Ibrohimovning rahbarligida A. Begmatov, A. Ahmedovlar tomonidan tuzilgan. Bu lug'at A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti tomonidan „Fan“ nashriyotida chop etiladi. Keyinchalik bu lug'at asosida boshqa imlo lug'atlar ham yaratiladi.

1991-yil 31-avgustda davlatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, yozuv va imlo sohasida ham katta islohotlar ro'y bera boshladi. Yuqorida grafika sohasidagi o'zgarishlar haqida fikr bildirgan bo'lsak, endi orfografiya sohasidagi o'zgarishlar to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Lotin yozuviga o'tganimizdan so'ng, lotin yozuviga

asoslangan yangi imlo qoidalari ishlab chiqila boshlandi. Chunki kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalari yangi lotin yozuviga to'liq mos kelmas edi. Shu boisdan mutaxassislar tomonidan yangi imlo qoidalari ishlab chiqish jarayoni boshlandi. Nihoyat, lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalari 1995-yilning 24- avgustida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlandi va shu yilning o'zida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" nomi bilan kitobi nashr etildi. Yangi imlo qoidalari to'g'risidagi qaror 4 ta qismdan iborat edi.

O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin (ilova qilinadi).
2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Davlat matbuot qo'mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo'llanma sifatida o'zbek tilining imlo lug'atini, kishi ismlari va joy nomlari lug'atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralari ko'rsinlar.
4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va fan hamda Ijtimoiy masalalar va madaniyat bo'limlariga yuklansin.

Yangi imlo qoidalari qoidalar jami 82 banddan iborat bo'lib, 7 bo'limda jamlangan edi . Bular:

1-bo'lim. Harflar imlosi:

a) Unlilar imlosi(1-7 bandlar)

b) Undoshlar imlosi (8-32-bandlar)

2- bo'lim. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37 bandlar)

3-bo'lim. Qo'shib yozish (38-50-bandlar)

4-bo'lim. Chiziqcha bilan yozish (51-56-bandlar)

5- bo'lim. Ajratib yozish (57-65-bandlar)

6-bo'lim. Bosh harflar imlosi (66-74-bandlar)

7-bo'lim. Ko'chirish qoidalari(75-82-bandlar)

1956-yilgi imlo qoidalarida ikki otdan tuzilgan qo'shma sifatlarning ajratib yozilishi aytilgan: *дўмор бўйин* (ot+ot=qo'shma sifat), *ҳаво ранг* (ot+ot=qo'shma sifat), *бодом қовоқ* (ot+ot=qo'shma sifat), *қўй кўз* (ot+ot=qo'shma sifat), *эўза нўчоқ* (ot+ot=qo'shma sifat) kabi. Qo'shma sifatlarning imlosiga oid bu qoida amalda o'zini oqlagani yo'q: *оромбаху*, *буғдойранг*, *илхомбаху* so'zlari "ot+ot=qo'shma sifat" qolipida tuzilgan bo'lishiga qaramay, deyarli barcha imlo lug'atlarida qo'shib yozilgan, *девсифат*, *одамсифат* so'zlari esa (ular ham "ot+ot=qo'shma sifat" qolipida shakllangan) lug'atlarda har xil berilmoqda. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi "qoidalari"da bu tipdagi qo'shma sifatlarning imlosi bir qadar tartibga solingan: "qoidalar"ning 38-bandida, xona, noma, baxsh, rang, mijoz, sifat kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlarning qo'shib yozilishi qayd etilgan: qabulxona, tabriknoma, orombaxsh, kamquvvat, bug`doyrang, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab kabi. (Qarang: 38-qoida). Shu qoida talablaridan kelib chiqqan holda, *havo rang*, *jigar rang*, *bodom qovoq*, *qo'y ko'z* kabi qo'shma sifatlarning komponentlari ham lotincha o'zbek yozuvida qo'shib yozilishi kerak: *havorang*, *bodomqovoq*, *qo`yko`z*, *jigarrang* kabi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev. O'zbek tilining imlo lug'ati.–Toshkent: Akademnashr. 2013. – b.10.
2. E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev. O'zbek tilining imlo lug'ati.–Toshkent: Akademnashr. 2013. – b.11.

1. Baxtiyor Mengliyev, Sharofat Toshmirzayeva, Saodat Atoyeva, Saida Majidova Umumiy o'рта ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. Toshkent:O'qituvchi“ 2020. – b.9.
2. E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev. O'zbek tilining imlo lug'ati.–Toshkent: Akademnashr. 2013. – b.12.
3. N.MAhmudov, A.Sobirov, SH. Sattorov, Sh. Toshmirzayeva, D. Mannopova. Umumiy o'рта ta'lim maktablarining 5-sinf uchun darslik. –Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2020. – b.87.